

## HARBIY SOHADA QAROR QABUL QILISH JARAYONIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI INDIVIDUAL XUSUSIYATLAR

**Egamova Ozodaxon Saydamqul qizi**

O'zbekiston Milliy universiteti 2-bosqich magistri

E-mail: [ozodasaydamqulovna@gmail.com](mailto:ozodasaydamqulovna@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Qaror qabul qilish jarayoni barcha kasbiy sohalarda muammoga yechim sifatida tasvirlanadi. Bugungi kunda qaror qabul qilish jarayoni o'ziga xos metod sifatida e'tirof etilib, uning sifatli olib borilishi samarali natijalarni bermoqda. Ayniqsa, harbiy sohada bu muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada shaxs individual xususiyatlarining harbiy sohadagi qaror qabul qilish jarayoniga ta'sir etishi haqidagi masalalar ilmiy-nazariy tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** qaror qabul qilish, kognitiv, analitik, alternativ, shaxs modeli, komponent, maksimalizatsiya, maksimalizator.

### ABSTRACT

The decision-making process is described as a solution to the problem in all professional areas. Today, the decision-making process is recognized as a specific method, and its qualitative conduct gives effective results. This is especially important in the military sphere. This article provides a scientific-theoretical analysis of issues about the influence of individual personality traits on the decision-making process in the military sphere.

**Keywords:** decision making, cognitive, analytical, alternative, personality model, component, maximalization, maximalizer.

### KIRISH

Qarorlar kasbiy faoliyatning barcha sohalariga, funksiyalariga aloqador sanalib, uning sifatiga sezilarli ta'sir etuvchi muhim omillar masalasida ko'plab zamonaviy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Qarorlar, asosan, faoliyat sikli davomida qabul qilinib, u shaxsga tegishli fikrlash uslubi va zaruriy vaziyatlarga nisbatan munosabat bildirish holatida namoyon bo'ladi. Psixologik yondashuvlarga muvofiq, qaror qabul qilish bir tomondan kognitiv, tartibga soluvchi, kommunikativ xarakterga ega bo'lsa, boshqa tomondan, shaxsning biror sohadagi keyingi harakatlari uchun asos bo'luvchi ijtimoiy-psixologik hodisa sanaladi. P.V.Terelyanskiyning aytishicha, qaror qabul qilish hodisasi – bu turli sharoitlarda qarorlarni ishlab chiqish

va ularni amalga oshirishning uzluksiz tizimidir. Ya'ni, biror dolzarb muammoni hal qilish bo'yicha ko'plab harakatlar yo'nalishlaridan birini tanlash jarayoni sanaladi[1]. Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, qaror – bu muqobil tanlov hisoblanadi.

Butunjahon mamlakatlari mudofaa tizimida kuchli salohiyatli va yuqori kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lgan harbiy xizmatchilarni tayyorlash doimo har bir davlat oldida turgan muhim masalalardan biri bo'lib kelgan. Hozirda zamonaviy harbiy xizmatchi kasbiga qo'yiladigan talablar shuni taqozo qiladiki, u harbiy, siyosiy, huquqiy, moliyaviy, pedagogik va psixologik bilimlaridan foydalangan holda xilma-xil vaziyatlarda professional qarorlar qabul qila olish ko'nikmasiga ega bo'lishi lozim. Demak, bunda qaror qabul qilish jarayoniga individual xususiyatlarning ta'sirini o'rganish o'z aktualligini saqlab qolmoqda.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Mazmunan olib qaralganda, qaror qabul qilish jarayoni menejment va psixologiya fani o'rganish predmeti bo'lgani bois, u ko'pchilik tadqiqotchilar tomonidan tashkiliy, iqtisodiy hamda psixologik muammo sifatida qaraladi.

M.A.Keremening so'zlariga ko'ra, boshqaruv qarorlarini amalga oshirishda rahbar shaxsiga xos qadriyatlar tizimi hamda individual psixologik xususiyatlarning o'ziga xosligi ham muhim o'rin tutadi[2]. Ya'ni rahbar shaxsida shakllangan irodaviy sifatlar, hissiy kechinmalar, javobgarlik hissi, kasbiy mahorat, tafakkur qilish uslubi kabilar qaror qabul qilish jarayoni uchun muhim omillardan sanaladi.

Qaror qabul qilish jarayoni ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida qaralsada, ba'zi manbalarda uning umumpsixologik jarayon sifatidagi jihatlari ham keng e'tirof etilmoqda. N.G.Miloradovanning aytishicha, boshqaruv qarorlarini qabul qiluvchi rahbarning tafakkuri quyidagi sifatlarga ega bo'lishi lozim: fikrlashdagi chuqurlik, ma'lumotlarni tahlil etishdagi kenglik, muammolarni hal etishdagi tezkorlik va har qanday vaziyatlarga moslashuvchanlik va hokazo. Keng fikrlash tafakkurning sintetik xususiyati hisoblanib, unda inson faoliyatning umumiy sxemasi va rollarni baholay olish imkoniyati kabilar aks etadi. Tafakkur qilishdagi tezlik bu – amalga oshirilayotgan vazifani bajarish uchun zarur bo'lgan vaqt me'yori bilan tavsiflanadi[3]. Demak, boshqaruv qarorlarini qabul qilish muammosini o'rganishda ikki soha, ya'ni umumiy psixologiya va ijtimoiy-psixologiya fani g'oyalari o'rtasida integratsiyalashuv jarayoni yuz beradi.

S.I.Samigin tomonidan yaratilgan “Boshqaruv psixologiyasi” monografiyasida qayd etilishicha, boshqaruv faoliyatida aniq va strategik qarorlar qabul qilish uchun avvalambor, rahbar optimist, realist bo'lishi kerak. Optimist rahbar barcha tashkilotlar uchun foydali shaxsdir. Ular har qanday og'ir sharoitlarda va umidsiz vaziyatlarda ijobiy qarorlar qabul qilish qobiliyatiga egadir. Shu bilan birga, mazkur xususiyatga

ega rahbarlar doim o'z faoliyatiga fidoiy, yangi loyihalarni yaratishga moyil tipdagi rahbar shaxslar hisoblanishadi[4]. Bundan nazarda tutish mumkinki, boshqaruv qarorlari va ularni amalga oshirishning ijtimoiy-psixologik omillari tahlilida rahbar shaxsiga xos tiplar muammosi ham e'tibordan chetda qolmasligi ta'kidlanmoqda.

X.G.Tolordavanning ilmiy tadqiqot ishida keltirilishicha, qarorlarni muvaffaqiyatli ishlab chiqish va uni amalga oshirish uchun maksimal imkoniyatni ta'minlaydigan shaxs modeliga quyidagi xususiyatlar kiritiladi[5]:

- Jamoatchilik;
- Qat'iyatlilik;
- Professionallik;
- Ochiqlik;
- Natijaga yo'nalganlik;
- O'ziga ishonch;
- Altruizm (fidoiylilik).

Yuqorida qayd etilgan ushbu sifatlar turli mazmundagi qarorlarning muvaffaqiyatini ta'minlovchi ijtimoiy-psixologik xususiyatlar sanalib, ular samarali qaror qabul qilish modelining tarkibiy komponentlari bo'libgina qolmasdan, jarayonga ta'sir etuvchi muhim xususiyatlar sanaladi.

### **NATIJALAR**

Sotsial-psixologiya vakillari (J.K.Abrik, S.Moskovisi va boshqalar.)ning hisoblashlaricha, qarorning samaradorligiga avtoritarizm, nazorat doirasi, tavakkalchilik ishtiyoqi va dogmatizm, ijtimoiy ustanovkalar va shaxsiy qadriyatlar, ijtimoiy institutlar, kichik guruhlar, hayotiy tajriba, professional kasbiy tajriba kabi faktorlar sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi[6]. Ular ilgari surayotgan g'oyada ham individual xususiyatlarning jarayonga singib ketishini anglashimiz mumkin. Qaror qabul qilish jarayoni shunday bir faoliyatki, u shaxsiy fazilatlar, kasbiy sifatlar yoki hayotiy tajribadan alohidalagan holda faqatgina intellektual ravishda amalga oshirishning imkoni yo'q.

Buyuk Sharq mutafakkiri Abu Ali ibn Sino shunday degan edi: "Farosat ilmi foydasi naqd bo'lgan ilmlardandir. Sen bu ilmni bilib olsang, u senga kishilarning o'zlari yashirib yurgan fe'l-u atvorlarini bildiradi"[7]. Mahsuldorligi yuqori qarorlarni amalga oshirishda O'rta asr Uyg'onish davri namoyondasining ham ziyraklik, zukkolik, donolik, voqea-hodisalarga adekvat munosabatda bo'lish, jarayonni real baholay olish, faoliyat natijalarini taxminiy prognoz qilishda keng dunyoqarashda fikrlay olish kabi sifatlarni o'ziga jamlagan "farsat" so'ziga urg'u berishi, uni o'rganishni ilm darajasiga ko'tarishi orqali qarorlarni shaxsiy resurslar sarflanadigan mahsulotga qiyoslashini ko'rishimiz mumkin.

## MUHOKAMA

Harbiy qarorlar qabul qilish jarayoni muammoga va jarayonga analitik yondashuv hisoblanib, unda maksimalizatsiyaga duch kelish mumkin. Maksimallashtirish – bu maqsadga yetish uchun optimal variantni topishda ko‘plab alternativlarni izlash uchun kognitiv energiyani sarflash hisoblanadi[8]. Ya’ni, qaror qabul qilishda maksimalikka intilish, eng muqobilini tanlash sifatining namoyon bo‘lishi jarayon ishtirokchilaridan ham quvvatni, ham vaqtni talab qiladi. Buning bir qancha noafzal tomonlari ham mavjud bo‘lib, odatda, maksimalizatsiyadan kutilgan darajada foydali natija chiqmaydi. Maksimalizatorlar doimiy ravishda o‘z qarorlarini yuqori darajaga ko‘tarishga harakat qilishi oqibatida hattoki reallikka qarshi fikr olib borish ehtimoli ortadi. Boshqa noaniq qarorlarni maksimalashtirishga intilish ham potensial salbiy oqibatlarni yuzaga keltirishi mumkin.

Maksimallashtirishning ham o‘ziga xos xususiyatlari farqlanadi, unda “tanlov paradoksi”ni kuzatish mumkinligi haqida ham ilmiy tadqiqotlar olib borilgan[9]. Bu paradoks mazmuni shundan iboratki, odamlar katta assortimentdagi alternativlar ichidan biron variantni tanlaydi, ammo yakuniy qarordan qoniqishmaydi. Bunga qo‘shimcha ravishda aytish mumkinki, maksimalizatorlarning individual xususiyatlari tanlovga yondashish tendensiyasiga ko‘ra farqlanadi. Ularning bir qismi faqat eng optimal variantni izlasa, boshqa qismi sharoit taqozo qiladigan darajada yetarlicha yechim beradigan qarorga keladilar.

Maksimalizatsiyaning namoyon bo‘lishi ideallikni olib kelishini bildirmaydi. Qoniqarli darajadagi variantlarni aniqlash aslida eng samarali yo‘ldir, chunki har qanday qaror ham o‘ziga yarasha afzallik va kamchiliklardan holi bo‘lmaydi. To‘g‘ri tanlovni amalga oshirish eng yaxshisini tanlashni emas, balki eng kam zarar yetkazadiganini ajrata bilish hisoblanadi.

## XULOSA

Qaror qabul qilish jarayoni muammoga va jarayonga tahliliy yondashuvni hamda kognitiv energiya sarfini talab etadigan faoliyat sifatida namoyon bo‘lib, u jarayon ishtirokchilaridan, xususan, boshqaruvchi, rahbar, mas’ul shaxslardan bir qancha shaxsiy sifatlarga ham ega bo‘lishni taqozo etadi. Ishtirokchilarning jarayonga kirishish davomida duch kelishi mumkin bo‘lgan bir qancha xatolarni inobatga oladigan bo‘lsak, ulardan fikrlashning moslashuvchanligi, analitiklikning pasayishi, paranoid fikrlarning yuzaga kelishi asosiy o‘rin tutadi. Zamonaviy harbiy xizmatchi aynan o‘zi ega bo‘lgan tanqidiy fikrlash qobiliyati bilan eng muqobil alternativlarni ajrata oladi. Yuqoridagilardan kelib chiqib umumiy xulosa qilishimiz mumkinki, ijobiy individual xususiyatlar shaxs faoliyati mahsuldorligiga, jumladan, aniq va noaniq vaziyatlarda samarali qarorlar qabul qilish ko‘nikmasiga muhim komponent rovida ta’sir etadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Терелянский П. В. Теория и методы принятия решений : учеб. пособие / П. В. Терелянский; ВолгГТУ. —Волгоград, 2016.
2. Кремень М.А. Практическая психология управления: пособие для студентов вузов. / М.А. Кремень. - Минск: ТетраСистемс, 2011.
3. Милорадова Н.Г. Психология управления в условиях стабильной неопределенности: Монография / Н.Г.Милорадова. - М.: АСВ, 2004.
4. Самыгин С.И. Психология управления / С.И. Самыгин. - РнД: Феникс, 2016.
5. Толордава Х.Г. Личностная характеристика безработного и ее влияние на процесс принятия решения по дальнейшему трудоустройству. Автореф. дис. на соискание ученой степени канд. психол. наук. Тверь, 2002.
6. Moscovic S. La Psychanalyse, Son Image et Son Public Paris: Presses Universitaires de France, 1976.
7. Abu Ali ibn Sino, Men anglagan dunyo. Toshkent: “Sharq” nashriyoti, 2012.
8. <https://doi.org/10.1016/j.paid.2020.110051>
9. Schwartz, B. (2004). The paradox of choice: Why more is less. New York: Harper Perennial.